

Dunyo bo'ylab sirlashuv

Televideniye xalq hayotining ko'zgusi sifatida ahamiyatlidir. Xalqning dardu tashvishlaridan ogoh qilish vositasi sifatida u qimmatlidir. Televideniya faoliyat yurituvchi ijodiy va texnik guruhning teletomoshabinlar bilan uchrashuvi, ijodiy muloqotlarining keng yo'lga qo'yilishi ham ijtimoiy hayotimiz uchun keng imkoniyatlarga yo'l ochadi. "Dunyo bo'ylab" telekanali ijodkorlari mana ikki yildirki, bir an'anaga sodiq bo'lib kelmoqdalar. Bu gal ular Institutimiz talabalari bilan uchrashuv tashkil etishdi.

Joriy yilning 29-mart kuni institutimizga tashrif buyurishib, "Dunyo bo'ylab" telekanali "Axborot-tahliliy dasturlar" muharririyatining bosh muharriri G'ofir Jamolov, "Bolalar va o'smirlar dasturi" muharririyatining bosh muharriri, falsafa fanlari doktori Farrux Olimov, "Kinoteatr" telekanali bosh muharriri Abdulhay Ataxodjayev, "Yashil sayyora", "Turfa olam" kabi ko'rsatuvlarning boshlovchisi Avazxon Hoshimovlar so'zga chiqib talabalarning qiziqtirgan savollariga javob berishdi.

Prezidentimiz taraqqiyotimizning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida Turizmga alohida e'tibor berayotganlari sir emas. Aynan Turizm kompaniyasi "Dunyo bo'ylab" telekanalining axborot hamkori sifatida ish olib borayotgani ham bejiz emas.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov